

Yer uchastkasini kompensatsiya evaziga davlat va jamoat ehtiyoji uchun olib qo'yilishi bo'yicha tashabbuskor va mulk egalari o'rtasida o'tkazilgan ochiq muhokama yuzasidan

B A Y O N 1

12. 03 .2024 yil

Yangixayot MFY

Boshlandi: soat 9⁰⁰ : _____

Tamomlandi: soat 11⁰⁰ : _____

Tashabbuskor

Tuman hokimi, A.Mansurov

Mulk egasi

21 nafar fuqarolar
(ilova ro'yxati)

Bayonlashtiruvchi:
Taklif etilganlar:

A.Patxiddinov
Tuman hokimining o'rinbosari
A.To'rayev, tuman qurilish bo'limi
boshlig'i U.Xolmatov, tuman
kadastrlar palatasi K.Ergashev,
Yangixayot, Bozorboshi MFY raisi

KUN TARTIBIDAGI MASALA:

1. "Axsikent" arxeologiya merosi ob'ektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasiga yodgorlik majmuasi tashkil etish munosabati bilan buzilishga tushgan mulk egasi bilan ochiq muhokamasi

To'raqo'rg'on tumani hokimi A.Mansurov (matnda "tashabbuskor"-deb yuritiladi) To'raqo'rg'on tumani, Yangixayot va Bozorboshi MFYda yashovchi 21 nafar fuqarolar (matnda "mulk egalari"-deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Vazirlarlar Mahkamasining 2017 yil 16 oktyabrda "Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanida "Axsikent" arxeologiya merosi ob'ektini tashkil etish to'g'risida"gi 831-sonli qarori hamda ushbu qarorni ijrosini ta'minlash maqsadida To'raqo'rg'on tuman hokimining 2017 yil 14 dekabdagi "To'raqo'rg'on tumani, Yangi hayot, Gulqishloq, va Bozorboshi mahallalari hududida "Axsikent" arxeologiya merosi ob'ektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasiga yodgorlik majmuasi tashkil etish munosabati bilan buzilishga

tushgan bino inshootlarini ro'yxatini tasdiqlash haqidagi 1432-sonli qarori qabul qilinganligini bildirib, ushbu joyda zamonaviy muzey, madaniy, tarixiy meros ob'ektlari hamda boshqa sayyohlarni qabul qilish maskanlarini qurilishini bildirib, mulk egalari qarorlarni va boshqa hujjatlarni ko'rsatib, kadastr hujjatiga asosan tegishli bo'lgan barcha mulklarini mustaqil baholovchida bozor baholotishni, baholagan qiymatni belgilangan tartibda kelishgan holda to'lab berilishi taklifini bildirdi.

Shundan so'ng, "Tashabbuskor" O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 29 iyunda qabul qilingan "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib taomillari to'g'risida"gi (O'RQ-781-sonli) Qonun bilan tanishtirib, buzilishga tushgan mulklarni aniqlash, ularni baholash, qiymatini to'lanish tartiblarini tushuntirdi.

"Mulk egalari" "Tashabbuskor" taklifi va taqdim qilingan barcha hujjatlar bilan tanishib chiqish uchun hamda maslahatlashib olish uchun bir oz vaqt so'rashdi.

So'ng "Mulk egalari" taqdim qilingan barcha hujjatlar bilan tanishib chiqib, uning taklifiga rozi bo'lib, o'zlariga tegishli bo'lgan barcha mulklarni mustaqil baholovchidan o'zlari bozor bahosida baholatib, baholash hisobotini "Tashabbuskor"ga taqdim qilishlarini bildirishdi.

"Tashabbuskor" tuman qurilish bo'limi U.Xolmatov, kadastrlar palatasi rahbari K.Ergashevlariga mulk egalari mulklarini qiymatini aniqlash zarur bo'ladigan barcha hujjatlarni yetkazib berishda amaliy yordam berish lozimligini tushuntirdi.

Yuqoridagilarga ko'ra, "Tashabbuskor" va "Mulk egalari" o'rtasidagi o'zaro kelishuv munosabatlarini kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 29 iyunda qabul qilingan "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib taomillari to'g'risida"gi (O'RQ-781-sonli) Qonun 20-moddasiga qo'llanib yig'ilish

QAROR QILADI:

1. To'raqo'rg'on tumani hokimi A.Mansurov (matnda "tashabbuskor"-deb yuritiladi) To'raqo'rg'on tumani, Yangi hayot va Bozorboshi MFYlarda yashovchi fuqarolar 21 nafar (matnda "mulk egalari"-deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Vazirlarlar Mahkamasining 2017 yil 16 oktyabrda "Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanida "Axsikent" arxeologiya merosi ob'ektini tashkil etish to'g'risida"gi 831-sonli qarori hamda ushbu qarorni ijrosini ta'minlash maqsadida To'raqo'rg'on tuman hokimining 2017-yil 14-dekabrda "To'raqo'rg'on tumani, Yangi hayot, Gulqishloq, va Bozorboshi mahallalari hududida "Axsikent" arxeologiya merosi

ob'ektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasiga yodgorlik majmuasi tashkil etish munosabati bilan buzilishga tushgan bino inshootlarini ro'yxatini tasdiqlash haqidagi 1432-sonli va mahalliy Kengash Huquq egalari bilan ochiq muhokama haqidagi qarori ma'lumot va asos uchun qabul qilinsin.


2. "Tashabbuskor" va "Mulk egalari" o'rtasida o'tkazilgan ochiq muhokama bo'yicha nizo va e'tirozlar bo'lmaganligi sababli tuman qurilish bo'limi U.Xolmatov, tuman kadastrlar palatasi boshlig'i K.Ergashevlar "Mulk egalari"gi mulklarni baholatish uchun zarur bo'ladigan hujjatlarni o'z vaqtida yetkazib berilishini ta'minlasin.


3. Tuman hokimining o'rinbosari A.To'rayev hokimlik va mulk egasi o'rtasida O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 29 iyunda qabul qilingan "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat extiyojlari uchun olib qo'yish tartib taomillari to'g'risida"gi (O'RQ-781-sonli) Qonunida belgilangan tartibda kelishuv imzolash va kelishuv bitimi notarial tartibda tasdiqlanish choralari ko'rsin.


4. Mazkur ochiq muhokama bayoni ijrosini ta'minlash tuman hokimining o'rinbosari A.To'rayev zimmasiga yuklatilsin.


5. Bayonnoma ikki nusxada tuzilib, bayonnoma mulk egalari tanishtirilib, mulk egalarini imzosi bilan tasdiqlanib, bir nusxasi tumani hokimligining qurilish, kommunikatsiyalarni rivojlantirish, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha bo'limida saqlansin.






Tuman hokimi, A.Mansurov



A.Patxiddinov



Maxmudov Anvar



Xodjaye Nizomiddin



Yulchiboyev Alijon



Matusmanov Muxtorjon



Boynazarov Anvarjon Sidiqjonovich



Boynazarov Sabaydulla Sidikjonovich



Karimov Shokir Ibragimovich



Parpiyeva Qanoat



Dadakuziyev Yuldashali



Mirzayev Numonjon Komilovich


Quronova Buzaxra


Merganov To'liqinboy Ergashaliyevich


Tojiboyev Xamidulla


Olimov Vaxobjon


Alimov Muzaffar Muxamadovich

[Handwritten signatures]

Imomnazarov Adxam Raximovich
Nazarova Xadicha
Umarov Abdulxapiz
Ismatullayev Abdulaziz
Tojiboyev Baxtiyor
Umarov Sharifjon

Yangixayot MFY raisi



Sirojiddinov Isroil

Bozorboshi MFY raisi

Xaydarov Maxammadjon